

SHEVALARNI LINGVOAREAL TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI XUSUSISDA

Nurmanov Furqat Xayitqulovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Email: furqatnx@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

Telefon: +998945383565

ANNOTATSIYA

Hozirgi tezkor va shiddatli rivojlanish asrida jamiyat yuksalib, fan taraqqiy etib borayotgan bir davrda arealogik tadqiqotlar ham o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada areal tilshunoslikning o'rganilish tarixi, ushbu sohada o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar, lingvistik xaritalar, izoglossa (dialektologik xaritada ma'lum bir tilda so'zlashuvchi hududlar chegarasi), uning tarqalishi va tasnifi, sheva, lahja, til va ijtimoiy o'zgarishlar hamda ularning lingvistik va geografik tarqalish omillari, til va lahjalarning hududiy kengayishini aniqlash va xaritalashtirish, til va shevalarning geografik kengayishi asosida yuzaga keladigan vibratsion (o'tish) hududining paydo bo'lishi va lingvistik noturg'unlik, areal lingvistikaning nazariy-metodologik masalalari haqida so'z yuritiladi. Tilshunoslikda "Areal lingvistika" sohasi bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib borayotgan fanlar sirasiga kiradi. Lingvoareal tadqiqotlar zamonaviy qiyosiy tilshunoslik sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Kalit so'zlar: areal lingvistika, qarluq, qipchoq, o'g'uz, zamonaviy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, izoglossa, izofonema, izomorfema til hodisalari, aralash zonalar, innovatsiya markazi, iradaiatsiya, dialektal lug'atlar, areal atlaslar, shevalararo birlashish, areal-tipologik metod.

О ЗНАЧЕНИИ ЛИНГВОАРЭАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ДИАЛЕКТОВ

Нурманов Фуркат Хайиткулович

**Студент докторантуры Самаркандского Государственного
Университета имени Шарафа Рашидова**

Email: furqatnx@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

Телефон: +998945383565

АННОТАЦИЯ

В современную эпоху быстрого и интенсивного развития, когда общество растет и наука прогрессирует, ареологические исследования считаются одной из проблем, ожидающих своего решения. В данной статье рассмотрены история изучения ареального языкознания, исследования, проведенные в узбекском языкознании, лингвистические карты, изоглосса (граница ареалов, говорящих на определенном языке на диалектологической карте), его распространение и классификация, диалект, говор, языковые и социальные изменения и факторы их лингвогеографического распространения, определяющие и картографирующие

территориальное расширение языков и диалектов, возникновение вибрационной (переходной) области, возникающей в результате географического расширения языков и диалектов и языковой нестабильности, теоретические и методологические вопросы ареальной лингвистики. В языкознании направление «ареальное языкознание» является одной из быстро развивающихся дисциплин как в научном, так и в практическом плане. Лингвострановедение является одним из основных направлений современной сравнительной лингвистики.

Ключевые слова: ареальное языкознание, карлуки, кипчаки, огузы, современное языкознание, сравнительное языкознание, изгласса, изофонемные и изоморфемные языковые явления, смешанные зоны, центр инноваций, иррадиация, диалектные словари, ареальные атласы, междиалектная интеграция, ареально-типологический метод.

ON THE IMPORTANCE OF THE LINGUA-ARIAL RESEARCH OF DIALECTS

Nurmanov Furkat Khayitkulovich

**Doctoral student of Samarkand State University under the name of Sharof
Rashidov**

Email: furqatnx@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

Phone number: +998945383565

ABSTRACT


In the current era of rapid and intense development, at a time when society is rising and science is progressing, areological research is considered one of the issues awaiting for its solution. In this article, the history of the study of areal linguistics, the researches carried out in Uzbek linguistics, linguistic maps, isoglossa (the border of areas that speak a certain language on a dialectological map), its distribution and classification, dialect, patois, language and social changes and factors of their linguistic and geographical distribution, determining and mapping the territorial expansion of languages and dialects, the emergence of a vibrational (transitional) region arising from the geographical expansion of languages and dialects and linguistic instability, theoretical and methodological issues of areal linguistics are discussed. In linguistics, the field of "Areal Linguistics" is one of the rapidly developing disciplines, both scientifically and practically. Lingua-areal studies are one of the main directions of modern comparative linguistics.

Key words: areal linguistics, Karluk, Kipchak, Oghuz, modern linguistics, comparative linguistics, isoglossa, isophonemic and isomorphemic linguistic phenomena, mixed zones, the centre of innovation, irradiation, dialectual dictionaries, areal atlases, interdialectal integration, areal-typological method.

XX asrda o'z o'rnini va maqomiga ega bo'lgan o'zbek shevashunoslik fani keyingi yillarda evolyutsion taraqqiyoti natijasida emperik-klassifikatsion bosqichdan qiyosiy-tarixiy, lingvogeografik va arealingvistik bosqichga o'tdi. Tilshunoslik yoki dialektologiya fanining geografiya bilan til yoki sheva faktlarini tekshirishda umumiy

metodlardan foydalanishga tabiiy ehtiyoji mavjud. Biron bir til materialining tarqalish joylarini tahlil qilishda, shevalar xaritalari yoki atlaslarini tuzishda shevashunoslik geografik bilimlarni qo‘llash zaruriyati yuzasidan areal lingvistika va lingvogeografiya fanlari paydo bo‘lgan¹. Dialekt va shevalarni geografik-kartografik usulda tadqiq etish “Devonu lug‘ati-t-turk” asarda M.Koshg‘ariy boshlab bergan bo‘lib, buyuk olim o‘z “Devon”ida XI asr turkiy lahja va shevalarda gaplashuvchi xalqlar qaysi hududlarda yashashini aks ettirgan xaritani joylashtiradi. O‘z davriga nisbatan mukammal tarzda tuzilgan xarita bugungi dialektal tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan tuzilgan ushbu xaritada toponimlar, oronimlar, shuningdek, etnotoponimlar – urug‘ va qabila nomlari keltirib o‘tilgan. Yer yuzing aylana shaklidagi tasvirida faqat sharqiy yarim shar ifodalangan bo‘lib, xaritaga sig‘magan nomlar kitobda barafsil sharhlangan. Bu tariximizdan bizgacha yetib kelgan noyob qadimgi obida bo‘lib, uni birinchi dialektal xarita deb atash mumkin.

1.1. Rasm.



XX asrga qadar ham ko‘plab Yevropalik sayyohlar, sharqshunos va turkologlar tomonidan turkiy xalqlar, jumladan o‘zbeklar yashaydigan joylarning xaritalari tuzilgan. Bunda xaritalarning asosiy qismi siyosiy xarakterga ega bo‘lsa-da, ulardan dialektal belgilarni topish mumkin. Bu borada rus olimlarining faoliyati, ayniqsa, muhim sanaladi. O‘tgan asr davomida o‘zbek shevashunoslari tomonidan ham ko‘plab xarita va atlaslar yaratildiki, ular bugungi lingvistik geografiya va areal lingvistika

¹ Дарвишов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. Монография. Наманган: НамДУ нашри, 2019, -Б.7.

asosining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. O‘zbek dialektologiyasida olib borilgan tadqiqotlar lingvistik xaritalardan holi emas. Chunki, shevashunoslik geografiya fani bilan chambarchas bog‘liq. Ya’ni ma’lum hududda shevalarning tarqalish va qo‘llanilish chegaralarini belgilashda geografiya faniga tayaniladi. “Tilshunoslik terminlarining ensiklopedik lug‘ati” da “Areal lingvistika (*lotin* tilidan - *maydon, makon*) - *tilshunoslikning lingvistik geografiya usullaridan* foydalangan holda, til hodisalarining hududiy darajada tarqalishini va tillararo (dialektlararo) o‘zaro ta’sirni o‘rganadigan bo‘limidir. *O‘zaro ta’sir qiluvchi til (dialekt)* faktlarini hududiy tavsiflashda hal qiluvchi prinsip ularning frontal qamrovidir. Areal lingvistikaning asosiy vazifasi - lingvistik xususiyatlarning hududiy taqsimlanish xususiyatlari va izoglossalarning talqinini baholash hisoblanadi. Natijada dialektlar, tillar va hududiy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sohalari aniqlanadi - umumiy tarkibiy xususiyatlar bilan tavsiflangan *til birlashmalari belgilanadi*” – *deb izohlangan*². “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da areal lingvistikani 2 ma’nodan ta’riflaydi: 1. Tilshunoslikni lingvistik areallarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi sohasi; 2. Tilshunoslikda lingvistik areallarni o‘rganishga alohida e’tibor beruvchi yo‘nalish. Yuqoridagi sharh va ta’riflardan kelib chiqadigan bo‘lsak, bir dialektal arealda turli sheva va lahjalar sohiblarining aralash istiqomat qilishi, sheva va lahjalarning qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarning ta’siri muhiti bo‘lgan o‘zbek xalq shevalarida areal lingvistika fanining ahamiyati nihoyatda muhim sanaladi. Bunu ikki tillilik, uch tillilik, milliy xalq shevalarining aralash halatda yashaydigan hududlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Ana shunday hududlar bo‘yicha amalga oshirilgan Sh.Jo‘rayev³, Z.Tillaboyeva⁴ va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rib o‘tilgan masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek sheva va lahjalarning dialektal tasvirini ilmiy kuzatish uchun ham areal lingvistik tahlil metodlariga zaruriy ehtiyoj mavjud. Tilshunos ibrohim Darveshov o‘z ishlarida bu ilmiy ehtiyojni dalillashga harakat qilgan. Olim o‘zining “Areal lingvistika: janubiy-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlar” nomli tadqiqotida “Jahon tilshunosligining arealogiya sohasi vakillari o‘z ilmiy qarashlarida millat tilini dialektologik manba – materiallarni lingvistik geografiya, areal lingvistika tamoyillari asosida bir butun, yaxlit – umumiy tarzda o‘rganish ko‘proq samara berishini isbotladilar. Ularning ilmiy qarashlari, asarlari u yoki bu til hodisasining hududiy tarqalishini ko‘rsatuvchi lingvistik xaritaga tushirilgan belgilar – izoglossa tushunchasining mohiyatini ochib berganligini ta’kidlab o‘tadi⁵. Shu o‘rinda areal lingvistikaning asosiy tushunchasi bo‘lgan izoglossa termini haqida ham to‘xtalib o‘tish lozim. Chunki asosiy termin va tushunchalar fan yoki yo‘nalishning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Manbalarda izoglossa – arealogik tadqiqotlarning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, *o‘zaro o‘xshash hodisa (qonuniyat) ning tarqalish (qo‘llanish) nuqtalarini va bu nuqtalarini va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini*

² [Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В. Н. Ярцева. М.: Сов. энциклопедия, 1990. -С. 683. https://tapemark.narod.ru/les/043d.html](https://tapemark.narod.ru/les/043d.html) (2023-yil, avgust).

³ Jo‘rayev Sh. *Bilingvizm sharoitida tojik va o‘zbek tillarining leksik sathdagi o‘zaro aloqalari* (Samarqand viloyati materiallari asosida). Samarqand. 2018.

⁴ Tillaboyeva Z. Samarqand shahri o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari (qarluq lahjasi misolida). Samarqand. 2023. -B.48.

⁵ Дарвишов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. Монография. Наманган: НамДУ нашри, 2019, -Б.8.

*xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi*⁶ sifatida izohlanadi. Bundan tashqari, izoleksa – leksik, izomorfa – morfologik, izosintagma – sintaktik, izofona – fonetik, fonologik izoglossa kabi turlari mavjud. til hodisasining qayerda shakllanib vujudga kelganligi va uning tarqalish chegaralarini aniqlash areal lingvistikaning asosiy vazifalaridan biridir⁷.

Lingvistik geografiya - til hodisalarining hududiy tarqalishini o'rganuvchi **tilshunoslikning** bo'limi bo'lib, XIX asr oxirida shakllana boshlagan. Turli tillarda dialekt farqlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'planishi ma'lum bir til hududida ushbu farqlarni taqsimlash chegaralarining mos kelishi yoki mos kelmasligi muammosini keltirib chiqardi. Lingvistik geografiya areal lingvistika bilan chambarchas bog'liq. Ba'zi dialekt shakllanishlarining xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni geografik xaritaga o'tkazish shuni ko'rsatdiki, ularning til egallagan hududda tarqalishi geografik xaritada ma'lum bir lingvistik faktning hududiy tarqalishini cheklaydigan izoglossa chiziqlarining murakkab to'qnashuvini tashkil qiladi va odatda, ma'lum bir dialektga xos bo'lgan turli hodisalarining izoglossalari mos kelmaydi. Biroq, to'liq mos kelmasdan, alohida izoglossalar bir-biriga yaqinlashib, izoglossalar deb ataladigan to'plamlarni hosil qiladi, ular orasida hududlar, ma'lum bir to'planning hodisalariga ko'ra til birligi bilan ajralib turadi va hududiy dialektlarni hosil qiladi. Ma'lum bir tilning tarqalish hududidagi izoglossalar to'plami yoki "til landshafti" o'rganish obyekti hisoblanadi⁸. Lingvistik geografiyaning asosiy o'rganish obyekti – til hodisalari: 1. Izoglossalar, izofonema va izomorfema. 2. Lingvistik atlaslar. 3. Mos hodisalar. 4. Areallar. 5. Lingvografik kartalar va kartalashtirish. 6. Til lanshafti. 7. Aralash zonalar. 8. Innovatsiya markazi. 9. Iradaiatsiya va boshqalar⁹. Lingvogeografiya sheva lahjalarni xaritalashtirish bilan shug'ullanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XX asr o'zbek dialektologiyasida hududiy sheva va lahjalarni tadqiq qilishga oid ishlarda ko'plab xaritalar tuzilgan. Ko'plab manba va darsliklarda qayd etilganidek, A.K.Borovkov 1940-yillardan boshlab o'zbek shevalarining atlasini yaratish ishlarini boshlab bergan. O'zi yaratgan anketa yordamida Farg'ona shevalarini tadqiq qilgan. Keyinchalik bu ishlarga V.V.Reshetov boshchilik qilgan. Toshkent va Ohangaron hududlarida istemolda bo'lgan qurama shevasining 49 ta dialektal xaritasini ishlab chiqqan bo'lib, shu asosda Toshkent viloyati shevalari atlasini tuzgan, ushbu atlas 150 ga yaqin kartalardan iborat. Shu o'rinda shevalar xaritasi va atlas haqida ayrim nazariy ma'lumotlarni keltirib o'tsak. Dialektal xarita lahja va shavalarining geografik joylashuvini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Bunday xaritalarda sheva xos hodisalarining taqsimlanishi va hududlari aniq belgilab beriladi. Xaritalar shartli belgi va ranglardan iborat bo'ladi. Bir xildagi shartli belgilar va ranglardan iborat kartalar to'plami dialektal atlas deyiladi. Atlaslar til yoki shevaga xos biron hodisa yuzasidan, umumiy milliy til yoki biron hudud yuzasidan yaratilishi mumkin. Rus, qozoq, turkman tillarining dialektal atlaslari mavjud. Ammo o'zbek tilining umumiy milliy dialektal atlas yaratilmagan. Faqatgina ayrim hududlarga xos hududiy atlaslar yaratilgan. Bu sohada Sh.Shoabdurahmonov,

⁶ Murodova N., Yarashova N. Areal lingvistika. Darslik. -Toshkent: Faktor press. 2023, -B.117.

⁷ Murodova N., Yarashova N. Areal lingvistika. Darslik. -Toshkent: Faktor press. 2023, -B.117.

⁸ [Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В. Н. Ярцева. М.: Сов. энциклопедия, 1990. -С. 683. https://tapemark.narod.ru/les/268a.html](https://tapemark.narod.ru/les/268a.html) (2023-yil, avgust).

⁹ Тўйчибоев Б., Хасанов Б. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004, 15-бет.

A.Jo'rayev, Q.Muhammadjonov, A.Shermatov, Y.Ibrohimovlarning tadqiqotlari mavjud. Akademik Sh.Shoabdurahmonov O'zbekistonda birinchi bo'lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. Professorlar Q.Muhammadjonov shimoliy o'zbek shevalarini, A.Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y.Ibrohimov va Z.Ibrohimovalar Orol bo'yi o'zbek shevalarini, N.Murodova Navoiy viloyati shevalarini kartalashtirgan¹⁰. Sheva va lahjalarni xaritalash va atlasini tuzish obyektini sinkchiblab o'rganib chiqishni taqozo qiladi. Buning uchun maxsus anketa yoki so'rovnomalar ishlab chiqish lozimligini yuqorida qayd etib o'tgandik. Dastlab Y.D.Polivanov tomonidan o'zbek tilida izoglossa borligi va ularni xaritalash kerakligi haqida fikr yuritgan bo'lsa, 1944-yilda professor A.K.Borovkov o'zbek tili shevalari atlasini yaratish maqsadida "O'zbek shevalahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar" anketasini tuzdi. M.Mirzayev 1955-yilda "Buxoro viloyatidagi o'zbek shevalarini o'rganish uchun anketa" professor A.Aliyev 1964-yilda "Namangan dialekti bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa" 1976-yilda professor A.G'ulomov, A.Aliyev, K.Nazarovlar tomonidan "O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma" yaratdilar¹¹. Hozirgi kunda har bir hududdagi oliy ta'lim tashkilotlari filologiya yo'nalishlari uchun alohida anketa-so'rovnomalar ishlab chiqilgan bo'lib, amaliy darslarda va dala amaliyotlarida qo'llanilib kelinmoqda.

Zamonaviy dialektal tadqiqotlarda arealogik va lingvogeografik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shevalarga xos xususiyat va hodisalarning geografik tarqalish o'rni va chegaralarini belgilash ularni yaqqol namoyish qilishga olib keladi. Shuning uchun ham zamonaviy ilm-fan bu usullardan foydalangan holda tadqiqotlar olib bormoqda. Shunday tadqiq obyektlari borki, o'z ichi va tashqi xususiyat va belgilariga ko'ra alohida yondashuvni talab qiladi. Biz tadqiq qilayotgan shevalarga xos bo'lgan morfologik xususiyatlarni o'rganish ham xuddi shunday mazmun kasb etadi. O'zbek xalq shevalarining morfologiyasi, xususan, yordamchi so'z turkumlari, batafsil bo'lmasa-da, tadqiq qilingan ilmiy obyektlardan biri sanaladi. Ammo lingvoareal metodlar asosida shu vaqtga qadar o'rganilmagan sohalardan biridir. Bizning nazarimizda, leksik ma'no anglatmay, faqatgina, grammatik funktsiya bajaradigan ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarni tasnifiy, tavsifiy, lisoniy tahlil usullaridan ko'ra, lingvogeografik va arealogik metodlar bilan o'rganish yetarlicha samara beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013, -B. 13-14.
2. Jo'rayev Sh. Bilingvizm sharoitida tojik va o'zbek tillarining leksik sathdagi o'zaro aloqalari (Samarqand viloyati materiallari asosida). Samarqand. 2018.
3. Murodova N., Yarashova N. Areal lingvistika. Darslik. -Toshkent: Faktor press. 2023, -B.117.
4. Tillaboyeva Z. Samarqand shahri o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari (qarluq lahjasi misolida). Samarqand. 2023. -B.48.

¹⁰ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013, -B. 13-14.

¹¹ Тўйчибоев Б., Хасанов Б. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004, 21-22-бетлар.

5. Дарвишов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. Монография. Наманган: НамДУ нашри, 2019, -Б.7.
6. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В. Н. Ярцева. М.: Сов. энциклопедия, 1990. -С. 683. <https://tapemark.narod.ru/les/043d.html> (2023-yil, avgust).
7. Тўйчибоев Б., Хасанов Б. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004, - Б. 112.
8. South Asian Jouonal of Maoketing hManagement Reseaoch (SAJMMR)
9. Uzbek language about linguistic nature of auxiliary words
10. Connective Words (Prepositions, Conjunctions and Particles) in “Divanu–Lugotit-Turk”(Dictionary of All Turkic Languages) of Mahmud Kashgari
11. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 133–143. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4082>
12. Research and education, 2(10), 30–40. Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10019387>
13. On the linguoculturological study of some dialecticisms in the “annotated dictionary of the uzbek language
14. Lexemes related to some oghuz dialect and their linguistic features in the" annotated dictionary of the uzbek language"